

“GALAKTIKADA BIR KUN” ASARIDA ILMIYLIKNING BADIY TALQINI

Mirsanova Moxira Xusniddin qizi,

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti,
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası assistenti

Tel: +998 99 525 68 63

moxiramirsanova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek bolalar adabiyoti vakili Sa‘dulla Quronovning ilmiy-fantastika janri rivojiga qo‘shgan hissasi, shuningdek, “Galaktikada bir kun” asarida ilmiylikning badiiy talqini xususida, bugungi fan-texnika rivojlanayotgan davrda ilmiy-fantastikaning ahamiyati, ijodkorning asarlarida sarguzasht-fantastik tasvir, ilmiy-fantastika rivoji, fantastik tasvir imkoniyatlari xususida, bundan tashqari ijodkorning fantastik obrazlar yarata olish mahorati xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *ilmiylik, ilmiy-fantastika, ijobiy qahramon, salbiy qahramon, janr, koinot.*

ABSTRACT

This article is devoted to the contribution of Sadulla Kuranov, a representative of modern Uzbek children's literature, to the development of the science fiction genre, as well as the artistic interpretation of science fiction in the work “one day in the Galaxy”, the importance of science fiction in the era of the development of modern science and technology, the adventure-fantasy image in the works of the creator, the development of science fiction, the fantastic image. From the point of view of possibilities, the following is about the creator's ability to create fantastic images.

Keywords: *science fiction, science fiction, positive hero, negative hero, genre, Universe*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена вкладу представителя современной узбекской детской литературы Садуллы Куранова в развитие жанра научной фантастики, а также художественной интерпретации научной фантастики в произведении “один день в Галактике”, значению научной фантастики в эпоху развития современной науки и техники, приключенческо-фантастическому образу в произведениях создателя, развитию научной

фантастики, фантастическому образу. с точки зрения возможностей, далее говорится об умении создателя создавать фантастические образы.

***Ключевые слова:** научность, научная фантастика, положительный герой, отрицательный герой, жанр, Вселенная.*

KIRISH

Bugungi fan-texnika shiddat bilan rivojlanayotgan asrda ilm-fan taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunning zamonaviy yozuvchilari badiiy asarlarga ham ilm-fan yutuqlarini, ilm olishning afzalliklarini mohirona singdirib, badiiy adabiyotimizga o'zgacha ruh, o'zgacha ifodalar olib kirmoqdalar. Shunday yozuvchilarimizdan biri Sa'dulla Quronovdir. Ijodkor o'zining "Galaktikada bir kun" va uning mantiqiy davomi bo'lgan "Koinot javohiri asarlari bilan kitobxonlar mehrini qozondi. Biz ijodkorning asarlaridagi ilmiylikni badiiyatga aylantirib ifodalash mahorati va asarlaridagi o'ziga xoslik haqidagi mulohazalarimizni ma'lum qilmoqchimiz.

Asosiy qism: Sa'dulla Quronovning "Galaktikada bir kun" asari ilmiy-fantastik janrning o'zbek adabiyotidagi yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Bu asarda muallif ilmiylik, sarguzasht va fantastika unsurlarini muvaffaqiyatli uyg'unlashtirib, o'quvchini koinot olamining sirli va hayratlanarli jihatlariga sho'ng'ishga chorlaydi. Shu o'rinda fantastik obrazlar, ijobiy va salbiy qahramonlar yaratish ham muhim ahamiyatga egaligini takidlab o'tmoq joiz. Bu haqida R.Ibragimova "Жанр научной фантастики в узбекской советской литературе" kitobida shunday mulohaza yuritadi.

"Inson tafakkuri qay darajada rivojlanmasin, turmush va yashash sharoitlari qay darajada yaxshilanmasin, odamlar tabiat kuchlari va ijtimoiy omillarni ikkiga ajratishda davom etgan – ijobiy va salbiy qutblarga. Xalq ijodiyotida bunday tabiiy farqlanish natijasida ijobiy va salbiy kuchlar – hayvonlar, o'simliklar, favqulodda kuch va qobiliyatlarga ega odamlar, divlar, ajdarlar, jodugarlar va afsungarlar – yuzaga kelib, ko'p asrlar davomida yashab kelgan va faoliyat yuritgan. Ularning barchasi hayotdagi "yaxshi" yoki "yomon" hodisalarning timsoli sifatida shakllangan. Ilmiy-fantastik janr asarning asosiy o'zagini tashkil etib, unda ilm-fan va texnologiyaning inson hayotiga ta'siri chuqur ochib berilgan". [3, Ибрагимова Р.М. Жанр научной фантастики в узбекской советской литературе, 52]

Fantastik obrazlar tizimi – ya'ni mifologiya, ertak va hokazolar – o'ziga xos individual badiiy xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ular orasida muayyan o'xshashlik va vorisiylik mavjud. Shu boisdan yaqin yillarda yaratilgan o'zbek xalq ertaklaridagi fantastik obrazlar bilan qadimiy mif va afsonalar – eng uzoq tarixiy davr mahsuli bo'lgan obrazlar o'rtasida o'xshashlik mavjud. Ijobiy va salbiy qahramonlar asarning

yuragi bo‘lib, ularning xarakteri, motivatsiyasi va rivojlanishi syujetni qiziqarli qiladi. Quyida ularni samarali yaratish uchun muhim jihatlar keltirilgan:

Ijobiy qahramon. Jasoratli va maqsad sari intiluvchan – Qiyinchiliklarni yengib o‘tishga tayyor. Xatolaridan saboq oluvchi – Mukammal emas, lekin o‘zgarish va rivojlanish qobiliyatiga ega. O‘z qadriyatlariga sodiq – O‘z ideallariga ishonadi va ular uchun kurashadi. Misollar:

1. Superqahramonlar (Superman, Spider-Man) – Adolat uchun kurashadi.
2. Oddiy odam, lekin qahramonga aylanadi (Harry Potter, Nomoz polvon)
3. Taqdir sinovlari oldida bardoshli.
4. O‘z maqsadiga erishish uchun fidokorlik qilishga tayyor bo‘lishi lozim.

Salbiy qahramonning xususiyatlariga ham diqqat qilsak:

1. O‘z manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi.
2. Qattiq ishonch bilan harakat qiladi – O‘zining ishini to‘g‘ri deb biladi, hatto bu boshqalarga zarar yetkazsa ham.

3. O‘z yo‘lida to‘siq bo‘lganlarni yo‘q qilishga tayyor.

4. Muvaffaqiyatli yoki makkor – Unga qarshi kurashish qiyin bo‘lishi kerak.

Sa’dulla Quronov ham ana shunday xususiyatlarga ega qahramonlar yarata olgan ijodkordir. Ijobiy:

Ahmad, Morgol, Moki va boshqa ko‘plab obrazlarni keltirish mumkin.

Salbiy: General Obma, uning yordamchisi Rago

Bu qahramonlar qattiq ishonch bilan harakat qiladigan, o‘zining ishini to‘g‘ri deb biladigan, hatto bu boshqalarga zarar yetkazsa ham maqsadidan qaytmaydigan, muvaffaqiyatli va makkor obrazlardir.

Asarda ilmiylik ham kitobxonning e‘tiborini tortadi. Sarguzasht-fantastik voqealar zamiriga ilmiy ma’lumotlar mohirona singdirilgan. Ilmiylikning ahamiyati bir necha jihatdan namoyon bo‘ladi:

1. Koinot tasvirlarida:

Asarda koinotning kengligi, sayyoralar va yulduzlar tasvirlari ilmiy yondashuv asosida berilgan. Ahmadning koinotga safar qilishi davomida va o‘zga sayyoraliklar bilan muloqotlari chog‘ida, o‘zining ixtirosini asoslash o‘rinlarida ilmiy faktlarni dalillab keltiradi. Ahmaddagi yuksak bilim ko‘p o‘rinlarda muammolarga onson yechim topishiga imkon beradi. O‘zga sayyoralik do‘stlari ham uning aqliga, ilmiga va zukkoligiga qoyil qolishadi. Ahmadni juda hurmat qilishadi.

Asarda uchraydigan ilmiy faktlar keltirilgan o‘rinlardan misol keltirsak:

“– Uchar qurilma raketadan ajralib, – davom etdi qahramonimiz, – kichik energiya evaziga fazodagi gravitatsiya to‘lqiniga tushib oladi. Gravitatsiya, ya’ni butun olam tortishish qonunlariga ko‘ra buni amalga oshirish mumkin. Nyuton va

Eynshteynning gravitatsiya haqidagi nazariyalari ham buni tasdiqlaydi. Gravitatsiya butun olamni harakatlantirib turadigan ko‘rinmas kuchdir. Fazoda esa gravitatsiyaning xuddi daryoga o‘xshash to‘lqinlari bor. Mening kemam ana shu to‘lqinga tushib olsa bas, fazoning istalgan nuqtasiga katta tezlikda uchib ketaveradi. – U shunday deb monitorda o‘zining hisob-kitoblari tushirilgan chizmani ko‘rsata boshladi. – Kvant fizikasining asoslari shuni ko‘rsatadiki...”[Quronov S., Galaktikada bir kun, 5-bet].

“Ixtirochilar tanlovi” qismidan keltirilgan ushbu parchada Ahmad o‘zi ixtiro qilgan sayyoralar aro uchar kemasini tanlov hakamlariga asoslab bermoqda. Aniq ilmiy faktlar bilan tushuntirilgan. Ijodkor ilmiy faktlarni o‘rni bilan mohirona badiiy asarga singdirib yuborgan. Nyutonning butun olam tortishish qonunini bilmaydigan odam bo‘lmasa kerak. Gravitatsiya nimaligi-yu, Eynshteyn va Kvant haqida ham fizika fani bilimdonlari yaxshi bilishadi. Yoki salmirlilik Margolning tilidan keltirilgan bu ilmiy faktlarni olaylik:

“Koinotdagi jismlarning tortishish kuchi, ya’ni gravitatsiyasi ko‘proq ularning massasi bilan bog‘liq. Masalan, Oy Yerdan ancha kichkina. Shu sababli uning tortishish kuchi Yernikidan 6-marta kamroq. Bu agar siz yerda 1 metr balandlikka sakray olsangiz, Oyda naq 6 metrga sakraysiz degani. Chunki Yerda 40 kg vaznli bola Oyga chiqqanida 7 kg bo‘lib qoladi. Xullas, fazoviy kema yaratayotganda shularni hisobga olish shart”. [Quronov S., Galaktikada bir kun, 21-bet]

Bu tasvirlar orqali muallif ilm-fanga bo‘lgan e’tiborni kuchaytiradi.

2. Texnologik yangiliklar;

Asarda ilg‘or texnologiyalar, kosmik kemalar va o‘zga sayyoraliklarning texnik imkoniyatlari tasvirlangan. Ushbu tasvirlar orqali muallif kelajakda texnologiya va fan insoniyat hayotida qanday o‘zgarishlar yasashi mumkinligini aks ettiradi. Asarning ko‘p o‘rinlarida o‘zga sayyoraliklar ilim-fan rivojida yerliklardan ancha ilgarilab ketganligini kuzatish mumkin. Ahmad safar chog‘ida bunga amin bo‘ladi. Ammo fan-texnikadagi yutuqlar ularning sayyorolari tabiatini inqirozga uchratganini asarni o‘qish chog‘ida guvohi bo‘ldik. Kitobxon tabiatni asrash lozimligi xususida xulosalar oladi.

Asarda Isaak Nuyuton bilan suhbatlar ham keltirilgan. Margol vaqt tuynugidan o‘tib, olim bilan uchrashishga muvofaq bo‘lgan. Bu suhbatlarda ham ilmiy faktlarni uchratish mumkin. bundan tashqari Mirzo Ulug‘bekning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari xususida ham so‘z boradi. Asar qahramoni bu asarni juda ixlos bilan o‘rgangan. Uchar kemani yasashda, astranomiyaning o‘rganishda bu asarga tayangan. Asar haqida ba’zi ma’lumotlarni keltiradi:

“– “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” buyuk olim Mirzo Ulug‘bek tomonidan tuzilgan astronomik jadval. Bu kitob 1437-yilda nashr qilingan. Unda 1018 ta yulduz haqida ma‘lumot berilgan. Men sayyoralarning koordinatasi, hajmi, massasi, tortishish kuchi, umuman, hamma jihatlarini shu kitob asosida hisob-kitob qilib chiqishimga to‘g‘ri keladi. Shundan keyingina, gravitatsiya to‘lqinida muvozanatni saqlash masalasini hal qilish mumkin”[Quronov S., Galaktikada bir kun, 12-bet].

Ilmiylik faqat texnologik jihatlarni yoritish bilan cheklanmaydi, balki insoniyatning koinotda o‘z o‘rnini anglashiga, olamni o‘rganishga bo‘lgan intilishini ham ifodalaydi. Ahmadning o‘zga madaniyatlar bilan muloqoti orqali insoniyatning umumiy qadriyatlari va birligi masalalari yoritiladi.

Ilmiylik va badiiy tasvirning uyg‘unligi ham asarda alohida ahamiyatga ega. Sa‘dulla Quronov ilmiy ma‘lumotlarni asarda shunchaki quruq fakt sifatida emas, balki badiiy tasvir va sarguzasht voqealari orqali ifoda etadi. Ahmadning boshidan o‘tgan voqealar orqali muallif ilm-fan va texnologiyaga bo‘lgan qiziqishni o‘yg‘otadi. Masalan, o‘zga sayyoraliklarning robot droidlardan unumli foydalanishi o‘rinlarida ilmiy yondashuv badiiy shaklda ifoda etilgan. Asar qahramonlari Mars sayyorasidagi erosti dunyosidan topib, o‘zlariga hamroh qilib olingan droidga Moki deb ism berib, o‘zining do‘stidek qabul qilishgan o‘rinlarda ham ilmiylik va badiiy tasvir uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Ilmiylikning badiiy talqini orqali muallif bir necha g‘oyaviy maqsadlarga erishadi:

Avvalo, ilmiy bilimlarni ommalashtiradi. Asarda tasvirlangan ilmiy voqealar yosh avlodni koinot, texnologiya va ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ahmadning texnologiya va ilmiy bilimlar yordamida murakkab muammolarni hal qilishi o‘quvchini bilim olishga undaydi. Bundan tashqari, kitobxon asardan Ahmadning o‘zga sayyoraliklar bilan muloqoti orqali insoniyatning kelajagi ilm-fan yutuqlariga bog‘liq ekanini bilib oladi. O‘zlikni anglash falsafasini ham ko‘rishimiz mumkin. Ahmadning koinotdagi sayohatlari davomida o‘zining ichki dunyosini anglash jarayoni muallif tomonidan chuqur badiiy talqin qilingan. Bu ilmiylikning faqat tashqi kashfiyotlar bilan emas, balki insonning o‘zini o‘rganish bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “Galaktikada bir kun” asari ilmiylik va fantastik tasvirlarning uyg‘unlashgan holda talqin etilgan betakror badiiy asardir. Sa‘dulla Quronov ilm-fan va texnologiyaning insoniyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini nafaqat qiziqarli sarguzashtlar orqali yoritadi, balki ilmiy bilimlarni ommalashtirish va yosh avlodni ilmga undash maqsadida ham foydalanadi. Asar o‘quvchini koinotning cheksizligi, texnologiyaning qudrati va inson aqlining buyukligini

anglashga undaydi. Shu bois, ushbu asar nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki fantastika janrida ham muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Quronov S., Galaktikada bir kun, Akademnashr, T.: 2019. -160 b
2. To‘xtaboyev S., Sariq devni minib, Yoshlar matbuoti, T.: 2023. -224 b
3. Ибрагимова Р.М. Жанр научной фантастики в узбекской советской литературеб, Тошкент, 1987 й
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. А. Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2007. 3- жилд. – 688 б